



**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI
SUV X O'JALIGI VAZIRLIGI**

BUYRUQ

2023 yil «24» 04

Nukus shahri

104 -sonli

**Jamoatchilik kengashini tashkil etish
to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligining 2018-yil 13-iyuldagi "Jamoatchilik kengashi faoliyatini yo'lga qo'yish to'g'risida"gi 53-sonli buyrug'i bilan tashkil etilgan Jamoatchilik kengashi faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 16-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Jamoatchilik palatasini tashkil etish to'g'risida"gi PF-5980-son Farmoni asosida yanada takomillashtirish, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasida belgilangan "Jamiyat-islohotlar tashabbuskori" degan yangi g'oyani amalga ro'yobga chiqarish, suv xo'jaligi sohasida faoliyat yuritayotgan barcha darajadagi xodimlarning davlat va jamiyat ishlarini boshqarishdagi ishtiroki ko'lamini kengaytirish, fuqarolar, jamiyat va davlatning o'zaro yaqin hamkorligini o'rnatish, shuningdek, vazirlik va uning tasarrufidagi tizim tashkilotlari faoliyati ustidan Jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida,

BUYURAMAN:

1. O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligining 2020-yil 20-apreldagi 108-buyrug'i **rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.**

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasida belgilangan "Jamiyat-islohotlar tashabbuskori" degan yangi g'oyani amalga ro'yobga chiqarish maqsadida **Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi huzurida Jamoatchilik kengashi tashkil etilsin.**

Belgilab qo'yilsinki, Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi o'z faoliyatini Jamoatchilik asosida amalga oshiruvchi maslahat organi hisoblanadi va o'z faoliyatini tasdiqlangan Nizomga asosan olib boradi.

3. Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi tarkibi 1-ilovaga va Nizom 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi (G.Atajanov)ga:

10 kun muddatda vazirlik huzuridagi Jamoatchilik kengashining joriy yilning ikkinchi yarimi uchun mo'ljallangan ish rejasini ishlab chiqish va belgilangan tartibda tasdiqlanishini hamda ijrosini tizimli ravishda tashkil etish:

10 kun muddatda vazirlik huzuridagi Jamoatchilik Kengashi a'zolarining shaxsiy mas'uliyati va javobgarligini kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 16-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi

Jamoatchilik palatasini tashkil etish to'g'risida"gi PF-5980-son Farmoni asosida har bir xodimning xizmat vazifalari taqsimotini ishlab chiqish;

vazirlik va uning mansabdor shaxslari faoliyati ustidan Jamoatchilik nazoratini o'rnatish, fuqarolar va vazirlik o'rtasida o'ziga xos ko'prik vazifasini bajarish;

Jamoatchilik uchun dolzarb bo'lgan masalalar yuzasidan o'rganishlar o'tkazish va tahlil natijalarini *har chorakda* Kengash yig'ilishlarida tanqidiy ruhda muhokama etib borish;

fuqarolik jamiyatining holati va rivojlanish tendensiyalari, shu jumladan sohada ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yakunlari hamda belgilangan prongoz ko'rsatgichlar va topshiriqlarning ijrosini so'zsiz ta'minlash bo'yicha choraklik, yarim yillik 9 oylik va yillik ma'lumotlarni hamda ma'ruzalarni vazirlik rahbariyatiga taqdim qilish vazifalari topshirilsin.

5. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Vazir

 **B. Juzbaev**